

MIRZO ULUG‘BEK MA’NAVIY MEROSSI VA
ZAMONAVIY SIVILIZATSIYA

Xalimbetov Yusup Masharipovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

“Ijtimoiv va gumanitar fanlar” kafedarsi dotsenti

Bakiev Shavkat Sherzodovich

Stomatologiya fakulteti 212-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola buyuk davlat arbobi va olim Mirzo Ulug‘bekning ma’naviy merosi va uning zamonaviy sivilizatsiya rivojlanishidagi o‘rni haqida hikoya qiladi. Maqolada uning ilm-fanga bo‘lgan ulkan hissasi, xususan, astronomiya, matematika va boshqa fanlar rivojiga qo‘sghan hissasi tahlil qilingan. Shuningdek, Ulug‘bekning madaniyat va ilmni rivojlantirish yo‘lidagi ijtimoiy va iqtisodiy islohotlari, uning adolatparvarlik g‘oyalari va ilmiy merosining zamonaviy yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyati batafsil yoritilgan.

Kalit so’zlar : Mirzo Ulug‘bek, ma’naviy meros, ilm-fan, astronomiya, matematika, islohotlar, zamonaviy sivilizatsiya,adolat

Nurli O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi vatani.

Antonio Gutteres

Xaqiqiy baxtga erishish maqsadida yoshlarni birlashtiruvchi yurt fazilatli yurtdir, o‘sib kelayotgan o‘g‘il – qizlarimizni barkamol kilib tarbiyalashni eng katta maqsad deb bilgувчи xalq fazilatli xalqdir -degan edi ulug‘ shox, buyuk olim Mirzo Ulug‘bek bobomiz.

Prezident Shavkat Mirziyoev 2021 -yil 19-yanvarda ma’naviy- ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalasi bo‘yicha video -selektr yig‘ilishida ma’naviyatning inson, davlat hayotidagi beqiyos yuksak o‘rnini quyidagicha ta’riflab bergen edi :

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi- ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustaxkam ustunga tayanamiz. Birinchisi bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotdir. Ikihkinchisi-ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”

Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli asarida Mirzo Ulug‘bek xaqida “Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanantning vorisi bo‘lishdek o‘ta ma’suliyatli aynan unga nasib etdi. Mirzo Ulug‘bek qariyb qirq yil mobaynida movarounaxr diyorining donishmand

xukumdori sifatida xalqning azaliy orzusi tinchlik,totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy etirish yo‘lida ulkan shijoat va madaniyat ko‘rsatgan.

Movarounnaxr va Xurosonning boy va serqirra qadriyatlari va islom dunyosining ma’naviy an’analiga suyangan Ulug‘bek mamlakatining ravnaqi, ayniqsa uning ma’naviyat kamolotida ilm fan va san’atling naqadar muximligini yaxshi bilar edi.

Mirzo Ulug‘bek o‘z fa’oliyatida buyuk mutafakkirlardan Ahmad Farg‘oniy, Farobi, Muso Xorazmiy, Beruniy va Ibn Sinolarning asarlarini mukammal o‘rganganadi.

Ulug‘bek Movarounnaxr shaharlarini,Samarqand, Buxoro,G‘ijduvon shaharlarini ilmu ma’rifat dargohiga aylantirdi.Buxoro madrasasining darvozasiga :”Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir,” degan kalima o‘yib yozib quyilgan. Samarqand madrasasi zamonasining dorulfununi edi.Ushbu madrasalarda iloxiyot ilmlari bilan birga riyoziyot (matematika), xandas (geometriya), ilmi xay’at (astronomiya),tibbiyot (meditsina), tarix, geografiya,ilmi aruz(poetika) arab tili va morfologiya kabi dunyoviy ilmlar xam o‘kitilar edi .

Ulug‘bek o‘z atrofida to‘plangan fikrdosh olimlarning bevosita ishtirokida shahar yaqinidagi Obiraxmat anxori bo‘yida rasadxona qurdirdi.Ali Qushchi uning balandligini Istambuldagagi Ali Safiya ibodatxonasining balandligiga qiyos qilgan.

Ulug‘bek Rasadxona qoshida boy kutubxona ham tashkil qilib,unda fanlarging deyarli xamma sohalariga tegishli qariyb o‘n besh ming jild kitoblar saqlangan .Sharq klassik astronomiyasining nazariy,amaliy masalalarini o‘zida mujassamlashtirgan va uni yangi ilmiy xulosalar bilan boyitgan Shox asar Ulug‘bekning “Ziji jadidi kurag‘onii”(Kurag‘oniying yangi astronomik jadvali) nomli kitobidir.

Ugug‘bekning ilmiy faoliyatiga va qoldirgan boy ilmiy merosiga baho berilganda uning zamondosh hamkasbi G‘iyosiddin Jamshid ta’riflaganidek,u Qur’on, Xadis,arab ilmi, va grammatikasi, fiqx, mantiq, adabiyot, musiqa,riyoziyot va falakiyot ilmlarini chuqr bilgan qomusiy olim bo‘lgan. Uning ilm-fan taraqqiyotidagi salmoqli o‘rni mashhur zamondosh olimlar G‘iyosiddin Jamshid, Miroy Chalabiy, Davlatshox Samarkandiyilar tarifidan chuqr xurmat bilan etirof qilingan.Shuning uchun ham ko‘pgina o‘tmish mutafakkirlari Ulug‘bekniadolatli sulton, donishmand murabbiy, aniq fanlar ustozsi sifatida tilga oladila, madx etadilar, xalq esa o‘zining ardoqli farzandi haqida rivoyatlar to‘qilgan.

1428- yilda Ulug‘bek tomonidan o‘tkazilgan isloxtotlari bilan bog‘liqdir.Jamiyatda pulning ahamiyatini yaxshi tushungan xolda uning qadr qiymatini oshirish uchun harakat qilgan.O‘sha davrda muomiladagi fulusiy chaqa pullar yengil vaznda bo‘lib,savdo rivojiga to‘sinqil qilgan.Ulug‘bek yengil vaznda zarb etilgan va muomilada bo‘lgan barcha chaqqa pullarni man etdi. Eski chakalarni yangisiga almashtirib, ichki savdoning mayda pullariga bo‘lgan talabini qondirish uchun u bir vaqtning o‘zida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shoxruxiya va

Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil etib , bir xil vazndagi salmoqli fuluslarni zab ettirib,muomilaga kiritdi.

Xalq orasida “Fulusiya adliya” ya’neadolatli chaqa nomi bilan shuxrat qozongan bu yangi mis fuluslar mamlakatning barcha shahar va qishloqlarida keng muomilaga kirib, davlatning ichki savdosini ta’minlay boshladi.

Ulug‘bek (1394-1449) tarixda ko‘proq davlat arbobi sifatida emas, bunyodkor inson yuksak zexnli olim sifatida, mashxurdir.

Bu davrda mamlakat iqtisodiyotining asoslariga alohida e’tibor qilindi, busiz rivojlanish bo‘lmashagini xokimlar yaxshi tushungan. O’sha davrda xam iqtisodiy rivojlanishining soliq tizimi bilan chambarchas bog‘liqligi yaxshi ma’lum edi. Yana bir muhim masala shuki, soliqlarni yig‘ish paytida soliqchilar,dehqon , chorvador, yoki bog‘bonga nisbattan zulm o‘tkazmasligi, jismoniy kuch ishlatmasligi va ishni urush janjalga olib bormasligi zarur qilib qo‘yilgan. Bu bilan insonning xaq -xuquqi, yashashga bo‘lgan daxlsizligi ta’minlangan.

Bu davrda ichki va tashqi savdoga katta ahamiyat berilgan. Xitoy, Xindiston, Piter va boshqa ko‘pgina davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan. Mamlakat iqtisodiyotining axvoli, ayniqsa xunarmandchilik va savdoning rivojlanishi tovar -pul munosabatlari,milliy valyuta mustaxkamligiga bog‘liq bo‘lgan.

Ulug‘bek davrida isloxoqlar tovar-pul munosabatlari rivojiga muxim xissa qo‘shdi.Iqtisodiyotning barqarorligiga erishildi.

Ulug‘bekning davlat arbobi,buyuk olim sifatida qoldirga ma’naviy merosi mustaqil mamlakatimiz yoshlari qalbida xalollik, poklik, iymon etiqod, vatanparvarlik g‘oyalalarini shakllantirishda namuna maktabi vazifasini ularni xalol mehnat, ilm-fanni izchil o‘rgnish, go‘zallik va san’atga bo‘lgan munosabatlarini rivojlantirib, ular qalbida ixtiyoriy erkinlik tizimini shakllantirib, komil inson bo‘lib yetishishiga yordam degan umiddamiz.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ona Vatanga, xalqqa xizmat qilish qanday bo‘lishi kerakligini Mirzo Ulug‘bek, hamda ilm-fanda hamkor bo‘lgan ulug‘ allomalarimiz, sarkardalarimiz shoir va mutafakkirlarimiz o‘z hayotlari faoliyatlarini misolida ko‘rsatib bergen. Biz ham ulug‘ ustoddan ibrat olib, xalqimizning tinchligini, salomatligini, ma’naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga harakat qilsak,o‘zbek degan millat nomi tarix zarvaraqlarida abadiy qoladi.

Mustaqillikka erishgan O‘zbekiston milliy madaniyatning tezkorlik bilan rivojlanishi tabiiy ravishda uning asosiy manbasi bo‘lmish madaniy merosimizni keng va chuqur hamda ilmiy asosda izchil o‘rganishimizni taqazo etadi. Ma’lumki, o‘zbek o‘tmishga ega bo‘lgan O‘rta Osiyo xalqlari tarixi o‘z boshidan shuurli voqealarini, ko‘tarilishi va susayishi davrlarini kechirgan. Bu davrlar tarixda shubhasiz ma’lum buyuk shaxslarni,dunyoga tanitdi.Xususan madaniyatimiz taraqqiyotida

9-12 -asrlar katta rol o‘ynadi. Bu davr o‘rta osiyo xalqlarini dunyo madaniyatida

mashxur qildi. Chunki O‘rta Osiyo xalqlarining bu davrga qo‘lga kiritgan madaniy yutuqlari, ilm-fan sohasidagi yangiliklari dunyo madaniyati, ilm-fan rivojining ajralmas xalqasini tashkil etadi.

Bu davrda O‘rta Osiyo madaniyati sharqshunoslik ilmida ko‘pgina olimlar tomonidan o‘rganilgan va u haqida ko‘p asar nashr etilgan.

Mustaqillik birlik, o‘zaro inoqlik va bir maqsad yo‘lida kurashuv natijasida ko‘lga kiritilishi hamda saqlab qolinishi tarixda bir necha bor isbotlangan Mustaqillik ilm-fan ma’rifatga tayansagina ijtimoiy -madaniy taraqqiyotida yuksak yutuqlarga erishishi mumkin.

Mustaqillik, bu boshqa o‘lkalarning ham mustaqil ma’naviyatini izzat-xurmat etishini, ular bilan madaniy, iqtisodiy va boshqa aloqalarni kengaytirishni, ulardan o‘rganish va xar bir bilganini baham ko‘rishni ko‘zda tutadi. Ulug‘bek ilm-fanning rivojiga juda katta etibor berdi va o‘zi ham davlatni boshqarish ishlari bilan bir qatorda turli ilmlar sohasida chuqur tadqiqotlar olib bordi.

Ulug‘bek davrida ko‘pgina ilmiy tarixiy asarlar arab va fors tillaridan eski o‘zbek tiliga tarjima etilgan va turli sharq tillarida kitoblar to‘plashda etibor berilan.

Xar bir xalq tarixida shunday davrlar bo‘ladiki, bu davrlar xalqning iste’dodi, ma’naviyat darajasi, aqliy qobiliyatini butun jahon miqyosiga olib chiqadi hamda jahon madaniyati rivojiga ajralmas xissa bo‘lib kiradi.

Bunday davrlarning qiymati nihoyatda muhim tarixiy voqealarning ro‘y berishi hamda buyuk arboblar, talant egalari, mutafakkirlarning faoliyati va qoldirgan merosi bilan o‘lchanadi.

Ma’lumki aqliy kamolot va axloqiy barkamollikka erishish tarbi va ta’lim oqali amalga oshiriladi. Lekin shunga etibor berish zarurki, agar tarbiya uchun, ya’ne farzandlarimizni go‘zal xulqli, odobli, vazmin, serfazilat qilibvoyaga yetkazish uchun hamisha o‘z tarixiy ildizlarimizdan, ma’naviy sarchashmalarimizdan frydalanish lozim bo‘lsa yoshlarimizni yetuk, ma’lumotli, bugugi kun talablariga javob beradigan bilimdon mutaxassis qilib ulg‘aytirish uchun jahondagi eng ilg‘or ilm-fan yutuqlarini ularga o‘rgatish darkor. Zero yuksak aql, kurashchan tafakkur borliqni o‘zgartirish salohiyatiga ega ekanligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Yaponiya mo‘jizasi, Singapur, Janubiy Korea, Malaziya, Germaniya ravnaqi so‘nggi yillardagi Xitoy taraqqiyoti- aqliy kamolot maxsuli ekanligianligi unutmasligimiz kerak.

Adabiyotlar.

1. Мухамедова, З. М. (2017). Актуальные проблемы этики в стоматологическом образовании. Гуманитарный трактат, (14), 20-23.
2. Мухамедова, З. М. (2020). ИСТОРИЧЕСКИЙ АСПЕКТ НЕКОТОРЫХ ФИЛОСОФСКО-РЕЛИГИОЗНЫХ И ЭТИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЙ В МЕДИЦИНЕ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. Гуманитарный трактат, (74), 23-25.

3. Махмудова, А. Н., & Махмудова, С. (2022). Гуманитаризация медицинского образования как фактор повышения качества обучения в вузе. *Science and Education*, 3(6), 709-718.
4. Мухамедова, З. М. (2017). Этические категории в клинической стоматологии. Гуманитарный трактат, (15), 22-25.
5. Махмудова, А. Н., & Афанасьева, О. Г. (2022). Принципы формирования экологически значимых ценностей у студентов медицинского вуза. *Science and Education*, 3(6), 1181-1192.
6. Мухамедова, З. М. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ КЛЮЧЕВЫХ ПРОБЛЕМ БИОЭТИКИ ИСЛАМЕ: СОВРЕМЕННОСТЬ. *Academic research in educational sciences*, (1), 114-119.
7. Умриллоев, Л. Ф. Ў., & Махмудова, А. Н. (2022). Глобаллашув шароитида ёшларимизнинг маънавиятига таъсир этувчи омиллар, уларни миллий ғоя руҳида тарбиялашнинг зарурийлиги. *Science and Education*, 3(7), 270-279.
8. Мухамедова, З. М. (2023). ПРОГРЕСС БИОТЕХНОЛОГИЙ КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОПРАВОВОГО ОСМЫСЛЕНИЯ. *Academic research in educational sciences*, 4(7), 64-72.
9. Мухамедова, З. М. (2018). Актуальные проблемы становления медицинского права и биоэтики в Узбекистане. *Авиценна*, (22), 23-27.
10. Nugmanovna, M. A., & Saodat, M. (2022). ENSURING THE EFFICIENCY OF PROTECTION OF THE RIGHTS OF MINOR CHILDREN: ON THE EXAMPLE OF FOREIGN EXPERIENCE. *British View*, 7(1).
11. Мухамедова, З. М. (2022). ЭТИЧЕСКАЯ СТРАТЕГИЯ ЗАКОНОТВОРЧЕСТВА В ОБЛАСТИ БИОЭТИКИ И ПРАВ ЧЕЛОВЕКА. *Academic research in educational sciences*, (1), 28-32.
12. Madinabonu, S., & Nugmanovna, M. A. (2024). THE ROLE OF LEGAL CULTURE IN THE FORMATION OF THE YOUNGER GENERATION IN THE EDUCATION SYSTEM. *Journal of Modern Educational Achievements*, 5(5), 213-219.
13. Nugmanovna, M. A. (2021). The role of legal consciousness and legal culture in the education of the individual. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 286-294.
14. Shamsiddinova, M., & Maxmudova, A. (2024). TIBBIYOTDA DEONTOLOGIYA VA BIOETIKANING DOLZARB MUAMMOLARI. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 8(59), 93-97.
15. Усмонова, Л. Р., & Камариддинзода, А. К. (2023). Ёш авлод тарбиясида эстетик қадриятларнинг ўрни. *Science And Education*, 4(1), 844-851.
16. Мухамедова, З. М. (2022). АКТУАЛЬНОСТЬ АКТИВИЗАЦИИ РАБОТЫ ЭТИЧЕСКИХ КОМИТЕТОВ В КОНТЕКСТЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

ОТЕЧЕСТВЕННОЙ

ЮРИСПРУДЕНЦИИ

И

ЗДРАВООХРАНЕНИЯ. Academic research in educational sciences, 3(12), 108-114.

17. Makhmudova, A. N. (2024). Bioethics as a new direction in the moral and ethical discourse of modern society. Science and Education, 5(4), 268-271.
18. Rakhmatullayevna, U. L. (2022). THE ROLE OF AESTHETIC EDUCATION IN THE MODERN WORLD. Confrencea, 1(1).
19. Тураева, Д. Ш. (2022). PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE MEETING EVENT. Confrencea, 1(1).
20. Nugmanona, M. A., Kamariddinovna, K. Z., & Kamariddinovna, K. F. (2023). BIOETHICAL MODELS OF DOCTOR–PATIENT RELATIONSHIPS (ON THE EXAMPLE OF A DENTIST). Journal of Modern Educational Achievements, 7(7), 85-91.
21. Мухамедова, З. М. (2020). Социо-гуманитарное сопровождение биомедицинских и клинических исследований в решении актуальных проблем генетических оснований укрепления общественного здоровья. In Философские проблемы биологии и медицины (pp. 137-140).
22. Тельманова, Ж., & Усмонова, Л. Р. (2023). Гиппократ-Великий Философ И Основатель Научного Врачевания. Journal of new century innovations, 23(3), 134-136.
23. Юлдашева, Д. Ю., & Усмонова, Л. Р. (2024). АМАЛИЙ ФАЛСАФА СОҲАЛАРИНИНГ КОНЦЕПТУАЛ МУАММОЛАРИ. Novateur Publications, (17), 1-165.
24. Камариддинзода, Ф., Камариддинзода, З., & Усмонова, Л. Р. (2024). Функциональные задачи динамики развития науки на востоке. Science and Education, 5(11), 306-310.
25. Rahmatullaevna, U. L. (2022). THE EMOTIONAL IMPACT OF ORIENTAL MINIATURES AND ITS ROLE IN THE STUDY OF HUMAN AESTHETIC NEEDS. PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL, (SI-1).
26. Халимбетов, Ю. М., & Хамрокулов, Ж. У. (2023). Роль интеллектуальных ценностей в формировании научной деятельности молодёжи. Science and Education, 4(1), 852-859.
27. Халимбетов, Ю. М., & Камариддинзода, З. (2023). Преодоление мировоззренческого индифферентизма важное условие активизации человеческого фактора. Science and Education, 4(10), 408-413.
28. Askarov, R. B., & Ganiev, G. G. (2023). The role of independent education in the formation of a scientific world view. Science and Education, 4(1), 410-415.